

Bekchanova Charos Bohram qizi

Urganch Davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada muloqotning inson hayotidagi o'rni, shaxslararo munosabatlarda muloqotni to'g'ri qo'llay olish ko'nikmasini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Muloqot, nutq, kommunikatsiya, dominant.

Аннотация: В данной статье раскрывается роль общения в жизни человека, умение правильно использовать язык в межличностных отношениях.

Ключевые слова: Общение, речь, коммуникация, доминанта.

Annotation: This article reveals the role of communication in human life, the ability to use language correctly in interpersonal relationships.

Keywords: Communication, speech, communication, dominant.

Psixiologiya lug'atida muloqot tushunchasiga ikki xil ta'rif beriladi:

Muloqot – hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirish jarayoni;

Muloqot – belgilar tizimi orqali subyektlarning o'zaro ta'sirlashuvi A.V. Petrovskiy tahriri ostida chiqqan "Umumiyy psixiologiya" darligida muloqot ikki va undan ortiq kishilar o'rtasidagi axborot ayriboshlash, o'zaro ta'sir va bir-birini tushunishdan iborat jarayon sifatida e'tirof etiladi.

Muloqot tushunchasini kommunikatsiyadan farqlash kerak. Kommunikatsiya – tirik va o'lik tabiatdagi tizimlar o'rtasida axborot almashinuvini anglatadi. Hayvonlar o'rtasidagi signallar almashinuvi, insonlarning texnik vositalar bilan aloqa qilishi – bularning barchasi kommunikatsiyadir. Muloqot esa faqat insonlar o'rtasida amalga oshishi mumkin. Inson bolasi aynan boshqalar bilanmuloqotda va munosabatda bo'lish jarayonoda shaxsga aylanib boradi, ijtimoiy tajriba va madaniyatni egallab boradi.

Muloqotning inson hayotidagi o'ni beqiyos. Yangi tug'ilgan bola boshqalar bilan muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lsa, u hech qachon shaxsga aylana olmaydi, ya'ni u o'z psixik taraqqiyoti bo'yicha orqada qolib ketadi. Zero, inson psixik taraqqiyoti muloqotdan boshlanadi. Muloqotsiz inson jamiyati bo'lishi mumkin emas. Aynan muloqot hamkorlikda faoliyat yurituvchi individlar jamoasini shakllantiradi. Hamkorlikdagi faoliyat rejasini tuzish va uni ro'yobga chiqarish uchun individlar o'rtasida muloqot amalga oshishi shart. Muloqot vositasida hamkorlikdagi faoliyat tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Ayni vaqtida faoliyat davomida insonlar o'rtasida yangi-yangi munosabatlar va aloqalar shakllanadi. Demak, muloqot va faoliyat o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Muloqot inson hayotida qanchalik yuksak ahamiyatga ega ekanligini quyidagi misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin:

1-misol. 1938-yil Richard Bard o'z xohishi bilan Antarktida muzliklarida 6 oy tanho qoladi. Bir timindan u tajriba natijalariga qiziqsa, ikkinchi tomondan kundalik hayotning g'ala-g'ovurlaridan biroz dam olishni istagan edi. Keyinchalik u mazkur davrni quyidagi so'zlar bilan eslaydi: "Bu yerdagi hayotim davomida bora-bora har bir harakatim, har bir ishim tobora mazmunsiz, mantiqsiz, maqsadsiz bo'lib borayotgan edi. Xavf-xatarlardan qo'rqligida odam bo'lsam-da, negadir bu yerda tomoning bosib qolishidan xavfsiray boshladim. Ovqatlanishimda muntazamlik yo'qoldi, yuvinmay qo'ydim".

2-misol. Tarixda yaponlarda "Maritao" nomli insonning o'zini o'zi takomillashtirish tizimi mavjud bo'lgan. Vaholanki, inson hech qanday jismoniy azoblarga duchor bo'laydi. Faqatgina bir haftaga g'orga kirib ketib, u yerda tanho qoladi. Bu yerda u hatto o'zi bilan gaplashishi mumkin bo'limgan. Sinovdan o'tganlar keyinchalik har qanday uchrashuv va suhbatni xursandchilik bilan qarshi oladilar. Qizig'i shundaki, ularda ko'proq gapirish ehtiyoji emas, balki tinglash ehtiyoji kuchayar ekan.

3-misol. Bir paytlarda Amerikada barcha tamaddixonalarni avtomatashtirish avj olgan edi. Ammo ko'p o'tmay ularning egalari kasodga uchray boshladи. Ma'lum bo'lishicha, bu yerga odamlar nafaqat tamaddi qilish, balki suhbatdosh topish uchun ham kelganlar. Bundan ko'rindaniki, insonlar doimo muloqotga ehtiyoj sezadilar va uni qondirishga harakat qiladilar.

O'spirinlarda qadriyatli ma'noli muloqot dominantlik qiladi. Yigit va qizlarning kattalar bilan muloqoti demokratik xarakter kasb eta boshlaydi. O'spirinning kattalar bilan muloqotining mazmuni hayot mazmunini izlash, o'zini bilish, hayotiy rejalar va ularni amalga oshirish yo'llari, insonlar orasidagi shaxslararo munosabatlar, kasb egalari haqidagi muammolarni qamrab oladi.

Kattalar bilan muloqot bir xil davom etmaydi, o'zini qiziqtirgan muammoni hal qilgach, keyingi muammo bo'yicha savol tug'ilguncha kamoq muloqot qilishi mumkin. Yigit va qizlar o'ziga yaqin kattalar bilan muloqot qilishga kasb tanlash muammolariga duch kelganlarida hayotiy tajribalarni o'rganish uchun ehtiyoj sezadilar. Bir-birini tushunish, bir-birini qo'llab-quvvatlashga asoslangan hamkorlik sharoitida muloqot samarali kechadi.

Shaxs muloqotining shakllanishida uning tarbiyalangalik darjasini muhim o'rinnegallaydi. Masalan, shaxsga kuchli ta'sir etadigan so'zlarni qo'llasangiz ham u qabul qilmasligi, sizning bergen ko'rsatmalarining amal qilmasligi mumkin. Chunki u yoshligidan muomala madaniyatini egallashi kerak. Muloqotning shakllanishida maqsad to'g'ri qo'yilishi lozim. Muloqot ta'lif jarayonida, turli vaziyatlarda rivojlanadi. Masalan, oilada, mahallada, jamoada, guruhda. Agar oilada kattalar bir-biriga qo'pol munosabatda bo'lsalar, bolalar ham ularga taqliq qilib atrofdagilar bilan nizolarga borishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shaxsning rivojlanishida o'zga bir shaxslar bilan fikr almashinuvida, ta'lif sohasida muloqot faoliyati muhim ahamiyatga ega. Muloqot, avvalo, oilada rivojlana boshlaydi. Muloqotni to'g'ri qo'llay bilish muloqot madaniyatini keltirib chiqaradi. Inson ongi bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. Inson ongingin

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-2, ISSUE-13 (26-December)**

rivojlanishida nutq muhim ahamiyatga ega. U muloqotga kirishishi, shaxslar bilan fikr alamashinuvi natijasida ongi rivojlanadi va olamni yaxlit anglay boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAT:

1. Mo'tabar Abdusalomovna Maxsudova Muloqot Psixologiyasi o'quv qo'llanmasi TOSHKENT "TURON-IQBOL" 2006.
2. Z.T.NISHONOVA,N.G.KAMILOVA,D.U.ABDULLAYEVA,M.X.XOLNAZAROVA Rivojlanish Psixologiyasi pedagogik psixologiya "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashroyoti TOSHKENT 2018.
3. F.I.Xaydarov, N.I.Halilova "Umumiy psixiologiya" darslik TOSHKENT 2009.